




International Scientific and Practical Conference on the  
topic: " Sustainable Architecture – Challenges and  
Achievement of the Present and Future"



## ADVANTAGES OF ORGANIZING CO-WORKING-COOPERATION AREAS WITHIN THE STRUCTURE OF A HIGHER EDUCATION INSTITUTION

**Karimova Dilnoza Erkinovna**

teacher,

**Kurbanov Shavkat Mamatkulovich**

is a senior teacher,

Samarkand State Architecture and Construction University named after  
Mirzo Ulugbek (SamSACU).

**Annotatsiya:** Maqolada talabalarining bilim darajasini oshirish, o'zaro tajriba va fikr almashish maqsadida oliy ta'lim muassasalari tuzilmasi tarkibida kovorkingni shakllantirish masalalari muhokama qilinadi. Oliy ta'lim muassasalari negizida kovorking markazlarini tashkil etishning asosiy maqsad va vazifalari aniqlanadi. Kovorking maydonlarining asosiy funksional yo'nalishlari va ularning ish unumdorligi va sifatiga ta'siri tasvirlangan. Talabalar tomonidan kovorking maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun g'oyalar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** jamoat maydoni, oliy ta'lim muassasasi, kovorking, funktsional sohalar, ish joyi, talabalar ta'limi.

**Аннотация:** В статье рассматривается формирование коворкингов в структуре высших учебных заведений с целью повышения уровня знаний студентов, обмена взаимным опытом и идеями. Определены основные цели и задачи организации коворкинг-центров на базе высших учебных заведений. Описаны основные функциональные зоны коворкингов и их влияние на производительность и качество работы. Предлагаются идеи по повышению эффективности использования коворкингов студентами.

**Ключевые слова:** общественное пространство, высшее учебное заведение, коворкинг, функциональные зоны, рабочее место, образование студентов.

**Abstract:** The article discusses the formation of co-working spaces in the structure of higher educational institutions in order to increase the level of students' knowledge, exchange mutual experience and ideas. The main goals and objectives of organizing co-working centers on the basis of higher educational institutions are determined. The main functional areas of co-working spaces and

*their impact on productivity and quality of work are described. Ideas are proposed to improve the efficiency of using co-working spaces by students.*

**Key words:** *public space, higher education institution, co-working, functional zones, workplace, education of students.*

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi talabalarning mustaqil ishlashi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, ularni tayyorlash darajasiga yangi talabalar paydo bo'ldi. Zamonaviy talabalar turli yo'nalishlarda rivojlanishga moyil: ba'zilar ikki yoki undan ortiq ta'lim tashkilotlarida o'qiydilar, ko'pchiliklari ishlaydi. Shu sababli, ko'pincha talabalar tomonidan ularning ko'p qirrali faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq muammolar mavjud. Yetarlicha ko'p sonli talabalar o'z maqsadlariga erishish uchun shaxsiy vaqtlaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalariga ega emaslar, shuning uchun topshiriqlar belgilangan muddatdan kechroq topshiriladi [1, 2-b.].

Turli adabiyotlarni tahlil qilish, shuningdek, talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijasida, talabalarning darslarga tayyorlanishiga to'sqinlik qiladigan ikkita asosiy sabab bor degan xulosaga kelindi:

1. Uyda yoki yotoqxonada o'qish uchun zarur shart-sharoitlarning yo'qligi;

2. Muhim ya'ni bilim olish bilan bog'liq ishlarni doimiy ravishda keyinga qoldirish, uning o'rniga masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yoki bo'lmasa boshqa vaziyatlarda vaqtni behudaga o'tkazish va hokazo.

Yuqorida aytib o'tilgan xulosalardan kelib chiqadiki, talabalarning vaqtini behudaga sarflamasliklari, do'stlar davrasida muloqot qilish va dam olish bilan birga birgalikda hamfikir bo'lib o'qib o'rganishlari, ishlashlari uchun maxsus joyga ehtiyoj tug'iladi. Bunday makonni yaratishdan maqsad talabalarni o'z topshiriqlarini bajarishlari mumkin bo'lgan ish joyi bilan ta'minlashdir.

Bizning ushbu maqolamizda oliy ta'lim muassasalari tuzilmasi tarkibida kovorking maydonlarini tashkil etish shakllari va usullarini aniqlash g'oyasi ilgari surildi.

"Co-working" inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilidan tarjima qilinganda kovorking "Hamkorlik maydoni" degan ma'noni anglatadi. Uning asoschisi amerikalik dasturchi Bred Nyunberg hisoblanadi. Kovorking g'oyasi frilanserlikning rivojlanishi bilan paydo bo'ldi, chunki uning asosiy kamchiligi ish joyi, jamoaning yo'qligidadir.

Kovorking bu muammolarni hal qilishi mumkin. Masalan, arxitektura yo'nalishida o'qiyotgan talaba dizayn yo'nalishida o'qiyotgan talaba bilan bir muhitda o'tirib ishlashi, bajarayotgan loyihalarida o'zlarining sohalaridan kelib chiqqan holda bir-biriga yordam berishlari, fikr almashishlari mumkin, tabiiyki bunday ish muhitida talabalar bajarayotgan ishning unumdorligi va sifati oshadi.



*1-rasm. Kovorking markazi rezidentlarining o'zaro fikr almashish jarayoni*

Tajriba almashish va jonli muloqot kovorking markazlarining yana bir vazifasidir, chunki zamonaviy yoshlar ijtimoiy tarmoqlar asiriga aylangan. Shuningdek, kovorking markazlari pullik xizmat ko'rsatgani sababli, unga tashrif buyuruvchilarni ijaraga sarflangan pullarni behuda sarf qilmaslik uchun samarali ishlashga undaydi. Ushbu markazda ishlash nafaqat talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki ta'lim muassasalari uchun uning tarkibida kovorkingni yaratish katta plyusdir, chunki universitet tashqaridan tashrif buyuruvchilardan qo'shimcha moliyaviy resurslarni oladi (ijaraga to'lov + oshxona xizmatlari).

Odatda, kovorking markazlarida odamlarning qulay ishlashi va dam olishi uchun barcha zarur sharoit mavjud: mebel, internet, ofis texnikasi, kafe yoki bufet. Bugungi kunda deyarli har bir inson noutbukga ega bo'lganligi sababli, ko'pchilik tashrif buyuruvchilarga kompyuter kerak bo'lmaydi.

Kovorking - bu faqatgina stol va stullardan iborat bo'lgan makon emas, u bir nechta funksional maydonlarga bo'linadi [2, 3-b.]. Ta'lim muassasalari tuzilmasidagi kovorking maydonlarida, asosiy ish maydonidan tashqari, quyidagi funksional maydon, xonalar ham bo'lishi darkor:


- zamonaviy va dolzarb adabiyotlari mavjud bo'lgan kutubxona;
- proyektor, zamonaviy monitor yoki bo'lmasa marker doskasi mavjud bo'lgan konferensiya yoki seminar xonasi;
- dam olish va muloqot qilish uchun qulay o'rindiqlar bilan jixozlangan xona;
- ovqatlanish joylari. Bunda ikki xil ko'rinishdagi oshxona bo'lishi mumkin. Ularning biri ochiq oshxona bo'lib, bu turdagi oshxona kofe mashinalari, mikroto'lqinli pechlar bilan jixozlanadi va kovorking markazi rezidentlari o'z-o'ziga xizmat qiladi. Ikkinchi turdagi oshxona kafe yoki bufet ko'rinishida bo'lib, pullik xizmat ko'rsatiladi.

Boshqa binolarda bo'lgani kabi kovorking markazlarida ham santugunlarning bo'lishi tabiiy.

*2-rasm. Kovorking markazining rejasi*

Ushbu markazni oliy ta'lim muassasalari tuzilmasi tarkibida tashkil etishning yana bir ajoyib g'oyasi ko'p yillik tajriba va malakaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning turli xil ma'ruzalari, mahorat darslarini o'tkazish imkoniyati bo'ladi, chunki kovorking markazlarida ishlashning yana bir afzalligi - bu yangi bilim va tajribaga ega bo'lishdir [3, 2-b.]. Shunday qilib, talabalar nafaqat hamkorlik va ijodkorlik uchun maydonga ega bo'ladi, balki o'z g'oyalarini amalga oshirishda maksimal samaradorlik uchun o'qituvchilar bilan o'zaro muloqot qilish imkoniyatiga ham ega bo'lishadi.

Yakuniy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalari tuzilmasi tarkibida tashkil etiladigan kovorking markazlari talabalarning o'qish faoliyatiga yanada motivatsiya beradi, ularning bilim darajasini oshiradi, talabalarning o'z sohasi bo'yicha rivojlanishiga, yangi tajriba orttirishiga yordam beradi, o'z yo'nalishi yoki unga turdosh yo'nalishdagi talabalar, soha vakillari bilan fikr almashishadi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Любченко, О. А., Ганичева, А. Н., & Каитов, А. П. (2018). К вопросу о разработке коворкинг-среды в современном вузе. *Вестник Костромского государственного университета. Серия: Педагогика. Психология. Социокинетика*, 24(3), 134-138.
2. Краузе, И. (2019). Коворкинг как модель занятости будущего. *Форсайт*, 13(2), 52-60.
3. Karimov, E. B., & Karimova, D. E. (2021). Distinctive Features of Modern Styles in Interior Design. *International Journal on Integrated Education*, 4(11), 21-24.
4. Erkinovna, K. D. (2022). The Role of Color in Human Practice.
5. Erkinovna, K. D. (2022). Modern Materials for Furniture Design.
6. Kurbanov Sh. M. (2022). The Role of Light and Color in Landscape Design. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 520-522.

7. Kurbanov Sh. M. (2021). Artificial Reservoirs in Landscape Design. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology (IJIRSET) 10, 15297-15299.
8. Kurbanov Sh. M. (2022). Park Landscapes And The Formation Of Their Visual Environment. International Journal on Integrated Education ,5, 341-344.